

# Chiroyli tilimiz bor!



## 21-Oktabr - O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilgan kun

*Bu dunyoda tili yo'qda dil yo'q derlar,  
Bahongni-ku berib ketgan Alisherlar...  
Har novdangda, har mevangda ming jilolar,  
Qodiriylar, Cho'lponlar-u Abdullolar...  
Sening qaytgan kuning tug'ilgan yilim,  
Ona tilim, ey muqaddas, Ona tilim!*

Muhammad YUSUF

## MULTIFILM - MA'NAVIY TARBIYACHI

*Bola dunyoqarashini shakllantirishda multfilmlarning o'rni beqiyos. Kinosan'atining ushbu janri jajji tomoshabinda iliq kayfiyat uyg'otadi, qalbida ezgu fazilatlarni tarbiyalaydi. Yomonlik insonga baxtsizlik keltirishi haqida tushuncha berib, yaxshilik qilishga undaydi.*

Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazida o'tkazilgan «Bolalarning ma'naviy kamolotida multfilmlarning o'rni» mavzuidagi yig'ilishda shu haqda so'z bordi. Unda Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi rahbari M.Hojimatov multfilmlarning ma'naviy-tarbiyaviy

ahamiyati haqida fikr bildirdi. Shuningdek, so'zga chiqqan Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi rahbari o'rinbosari Sultonmurod Olimov, Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi bosh mutaxassisi Shuhrat Nasimov, «O'zbekkino» Milliy agentligi bosh direktori A'zamjon Isxoqov, Xalq ta'limi vaziri o'rinbosari Abdug'ani Xolbekovlar milliy qadriyatlarimizga mos keluvchi, vatanparvarlikni targ'ib qiluvchi, milliy qahramonlar hayoti aks ettirilgan multfilmlar yaratishga e'tibor qaratish lozimligini alohida ta'kidlashdi.

Gulyuz ORIFJONOVA

# «Kamalak» – ORZULARGA OCHILGAN ESHIK



Bolalar, siz moviy osmonda kamalak jilosini ko'p bora kuzatgansiz-a? Uning yetti xildagi bir-biridan yorqin nurlaridan dilingiz huzur qilganmi? O'sha tobda negadir, nimagadir intilganmisiz? Yoki mo'jizalar olamida butun vujudingizni go'zallik tilsimlariga bog'lab, hayratlar bo'stoniga uchganmisiz? Shunday holatga tushgan bo'lsangiz, ajablanmang, chunki «Kamalak»ning turfa ranglarida yoshlikning bebaho qudrati, shiddati va g'ayrati bor.

Kechagina Sirdaryo viloyatida bo'lib o'tgan Respublika «Kamalak» bolalar tashkilotining 5-Rayosat yig'ilishida aynan «Kamalak»chilarning maktablarida olib borayotgan keng ko'lamli ishlari o'rganildi.

Unda «Kamalak» bolalar tashkilotining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo'limlari hamda hamkor tashkilotlar vakillaridan iborat 35 nafar Rayosat a'zolari qatnashdilar. Uch kun davom etgan anjumanda Sirdaryo viloyati va uning

tasarrufidagi mahalliy «Kamalak» bolalar tashkiloti va Sardorlar Kengashi ishi o'rganildi va ular zimmasiga yangi vazifalar yuklatildi.

**Odina JAMOLDINOVA, Respublika «Kamalak» bolalar tashkiloti raisi:**

–Yig'ilishdan ko'zlangan maqsad,

viloyat o'quvchilarining «Kamalak» bilan do'stona munosabatini mustahkamlash hamda uning a'zolari bilan yaqindan tanishish edi. Biz bilim maskanlarida izlanuvchan bolalarning ko'pligidan quvondik. Iqtidorli bola intiladi, do'stini, mahallasidagi tengdoshini yaxshilikka yetaklaydi. Demak, u bizning izdoshimiz, yetakchimizdir.

## LOYIHALAR ISHGA CHORLAR

Sirdaryo viloyatidagi noan'anaviy seminarda 7 ta loyiha asosida o'tgan ommaviy tadbirlar bir-biridan qiziqarli bo'ldi. Uch kun davomida sardorlar hayoti

«Sog'lom avlod» yo'nalishlarida maktab Sardorlar Kengashi a'zolari ibratli ishlarni uddalamoqdalar. Ularga havas qilib, tengdoshlari ham loyiha dasturida qatnashmoqdalar.

Ayni paytda Sirdaryo viloyatida 303 ta maktab mavjud. Ularda ta'lim olayotgan o'quvchilarning 68504 nafari «Kamalak»ka a'zo.

qatoriga «Iste'dod sohiblari» yangi dasturi kiritilganidan xursandman. Bugungi harakat bizni kamolot pillapoyalariga chorlamogda. Bunday tadbirlarni yangi takliflar bilan boyitishimiz lozimligi zimmamizga yana mas'uliyat yukladi.

## TARBIYA MAKTABIDIR...

**Fariza AVEZOVA,**

– Men Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahridagi 37-maxsus maktabning 9-sinf o'quvchisi-

Quvonarlisi, yurtimizdagi jami 9769 ta umumta'lim maktablarida 2.726.387 nafar 10-14 yoshgacha bo'lgan o'quvchilardan 2.526.286 nafari «Kamalak» bolalar tashkiloti a'ziligiga qabul qilingan. Yaqinda «Kamalak»ka a'zomiz» loyiha doirasida 10 yoshgacha bo'lgan bolajonlar tashkilot safiga a'zo bo'ldilar.

An'anaviy anjuman do'stona fikrlarga boy bo'ldi

o'rganildi. Mo'ljallangan ishlar rejasi tahlilii, tanqidiy asosda sarhisob qilindi. Darhaqiqat, maktab orzular ostonasidir. «Kamalak» bolalar tashkiloti esa aynan bolalar manfaatlarini himoya qiluvchi, ularni amaliy ishlari bilan orzular bo'stoniga yetaklovchi tashkilotdir. Bugungi kunda uning faoliyatiga nazar solsak, samarali ishlar ko'lamining kengligiga amin bo'lamiz. Tashkilotning yettita yo'nalishi turli klublar va to'garaklariga ega. «Oltin meros», «Mehrshafqat», «Ma'naviyat va ma'rifat», «Ekosan», «Vatanparvar», «Umid» va

## «KAMOLOT»NING ERTASI

**Zarina SULTONOVA, Farg'ona viloyati, «Kamalak» bolalar tashkiloti sardori:**

– 5-Rayosat yig'ilishi bu safar Sirdaryoda o'tdi. Bu yig'ilish biz sardorlar uchun ham tajriba maktabi bo'ldi. Sirdaryolik tengdoshlarimizning maktab hayoti, tadbirlari bilan tanishdik. Yutuqlari, kamchiliklarini o'rgandik. Loyihalarimiz

## REJAMIZ ULKAN



**Malika DONIYEVA, Respublika «Kamalak» bolalar tashkiloti Sardorlar Kengashi raisi:**

– Biz poytaxtda anjumanimizni o'tkazishga o'rganib qolgandik. Sirdaryoda bo'lganimizda, seminar davomida maktablarda bo'ldik. Maktab sardorlarining ishlariga havas qildik. Yangidan qad rostlagan «Bolalar shaharchasi»da bo'lganimizda, «Biz birgamiz» aksiyasida qatnashdik. Bizga safdosh, intiluvchan izdoshlarimiz ko'pligiga guvoh bo'ldik.


man. Maktabimizdagi «Kamalak» bolalar tashkilotida matbuot yo'nalishi bo'yicha sardorman.

Bilim maskanimizdagi yangiliklar to'g'risida respublika matbuotiga xabarlar yetkazib turaman. Tadbirlar davomida «Kamalak»chilar safi kengayyapti. U bizning do'stimiz hamda tarbiya maktabimizga aylangan.

**Ma'mura MADRAHIMOVA  
Sirdaryo – Toshkent**



«Men askarman» loyihasi sardorlar muhokamasida



# RASULZODA HAMISHA G'OLIB

**N**ozimani taniganlar, ustoz va murabbiylari doimo bir gapni takrorlashadi: Rasulzoda hamisha g'olib.

Nozima Rasulzoda turk, arab, fors, ingliz tillarini mukammal o'rganishga qiziqadi. Shu sababdan ham Toshkent Davlat sharqshunoslik instituti qoshidagi Sobir Rahimov akademik litseyiga o'qishga bordi.

Litseyda barcha fanlardan faqat a'lo o'qishga harakat qilayotgan Nozimaga barcha tengdoshlari havas bilan qarashadi. Ustozlari, ayniqsa, matematika fani o'qituvchisi Dilbar opa Ibodova o'quvchisining

muvaffaqiyatlaridan mamnun bo'lib, shunday deydilar:

– Nozimaxon litseyimiz faxri. Qayerda yaxshi ish boshlangan bo'lsa, o'sha yerda Nozima bosh.

Yaqinda litsey o'quvchi va o'qituvchilari yana bir xushxabarni eshitishdi. Qizaloq tumanda o'tkazilgan stol tennisi sport musobaqalarida qatnashib, a'lo natijalarni qo'lga kiritibdi.

Til o'rganish bilan birga stol tennisi bilan ham jiddiy shug'ullanayotgan Nozimaga, bo'sh kelma, degimiz keldi.

**Dilobar SOYIBJONOVA,**  
Sobir Rahimov tumanidagi  
28-maktab o'quvchisi

*Litsey o'quvchilari bilan suhbatlashganimizda, ular o'qish-o'rganishlari uchun barcha sharoitlar yetarli ekanligini ta'kidlab o'tishdi. Birinchi vazifamiz o'qish, deyishar ekan, kelgusida yurtiga munosib farzand bo'lishga, insonlarga foydasi tegadigan, ot-onalariga, ustoz-murabbiylariga rahmatlar yog'diradigan bilimdon, zukko, sog'lom, o'ktam o'g'il-qizlar bo'lishga so'z berdilar.*




# YAPON BOLALARI HAQIDA

Yaponiya, asosan, to'rt oroldan tashkil topgan bo'lib, dunyodagi kuchli «Yettilik» davlatlaridan biri, shuningdek, dunyo madaniyati va ilm-fani o'chog'i hisoblanadi. Bugun sizga Yaponiya haqida emas, yapon bolalari to'g'risida ma'lumot bermoqchimiz.

Yapon bolalari dunyoda ham aqlan, ham jismonan dong taratgan. Yaponiya tarixiga nazar tashlasak, urush yillarida bolalar va ayollar zimmasiga katta vazifa yuklaganligiga guvoh bo'lamiz. Shu yillarda erkaklarning bari urushga safarbar qilingani bois, dehqonchilik, chorchachilik va uy yumushlari bolalarni ancha qiynab qo'ygandi. O'sha paytda ular na o'qishni, na yozishni bilishardi. Ammo internet xabarlariga qaraganda, hozir yapon bolalari bilim darajasiga ko'ra dunyoda eng yuqori o'rinda turar ekanlar. Hatto ular orasida 10 yoshida ilmiy ish yoqlab, 14 yoshida professor bo'lganlar ham topiladi.

Yapon bolalari ilm-fanni yoshlikdan juda puxta o'zlashtirishadi. Buni birgina misol bilan isbotlash mumkin: yapon o'quvchisi maktab



# NIMALARNI BILASIZ?

shahodatnomasini qo'lga kiritish uchun, albatta biron narsa ixtiro qilishi shart, aks holda, ular maktabni bitira olmas ekanlar.

Yapon bolalari nafaqat bilim, balki sport sohasida ham yaxshi natijalar

ko'rsatishadi. Masalan, yengil atletika, gimnastika, boks, futbol, qo'l to'pi, stol tennisi kabi sport turlari bo'yicha har yili o'smirlar va bolalar chempionatlarida yaxshi natijalarga erishadilar.

# SUVDA SUZUVCHI UY

Yaponiyadagi joy muammosi nafaqat kattalarni, balki bolalarni ham o'ylantirmoqda. 2009-yil mart oyida bir guruh yapon bolalari tomonidan yaratilgan loyiha bo'yicha yangicha uslubdagi suvda suzuvchi uy barpo etildi. Bundan tashqari, Yaponiyada har yili robot yasovchi bolalar o'rtasida bellashuvlar bo'lib o'tadi. Bu bellashuvlar jahonning juda ko'p olimlari e'tiborida bo'ladi. Bellashuvda yangi-yangi ixtirolar namoyish etiladi.

# YOSH IXTIROCHILAR

1960-1980-yillarda davom etgan iqtisodiy inqiroz davrida yapon fuqarolari o'zlarining qimmatbaho buyumlarini hukumatga topshirishgan. Hukumat esa yosh avlodning ta'lim olishiga katta imkoniyatlar yaratib bergan. Shunday ishlar evaziga davlat shu darajaga yetgan.

Olimlarning fikricha, hech qaysi xalq aqliy jihatdan bir-biridan kam emas. Yapon bolalarining yutug'i ularning yangilikka juda o'chligidir. Shuning

uchun ham ularni «Ixtirochi bolalar» deb atashsa, ajab emas.

Yurtimiz farzandlari ham aqlan, ham jismoniy jihatdan hech bir davlat bolalaridan kam emas. Biz ham o'z imkoniyatlarimizdan unumli foydalanib, o'zbek bolalari nomini dunyoga tanitaylik.

**Mirkamol UMMATQULOV,**  
Jizzax viloyati, Zomin tumanidagi  
65-umumta'lim maktabining  
«Kamolot» sardori

# G'AROYIB SOVG'A

Yaponiyaning «Madre» kompaniyasi bolalarga eng g'amxo'r firmalardan biri hisoblanar ekan. Bolajonlarning salomatligi haqida qayg'urayotgan kompaniya a'zolari bolalar uchun g'aroyib kurtka yaratishdi. Ushbu kiyim kichkintoylarni o'tkir tig'lardan hamda o'qdan himoya qila oladi. O'n ikki xil rangda ishlab chiqarilayotgan bunday kurtkalar sotuvda 46095 yenda sotilmoqda.

Internet xabarlari  
asosida tayyorlandi



# TEST

1. Hadisning musxadi nima?

- A) hadislar ro'yxati;
- B) hadis aytilgan vaqt;
- D) hadis aytilgan joy;
- E) roviylar ro'yxati.

2. «Al-jome' as-sahih» kitobiga qancha hadis kiritilgan?

- A) 7397 ta;
- B) 7896 ta;
- D) 7658 ta;
- E) 7398 ta.

3. Ezopning «Yovvoyi echkilar bilan cho'pon» masalidan qanday xulosa kelib chiqadi?

- A) to'g'ri va rostgo'y bo'lish;
- B) do'stga sadoqat;
- D) haqiqatgo'y bo'lish;
- E) mehnatsevarlik.

4. «Ulug' masalchi» deb tan olingan donishmand kim?

- A) Buxoriy;
- B) Ksanf;
- D) Ezop;
- E) Hamza.

5. Ezopning «Kiyik bilan tokzor» masalidan qanday xulosa kelib chiqadi?

- A) kattalarga hurmat;
- B) kamtar bo'lishlik;
- D) yomonlikka yomonlik;
- E) yaxshilikka hamisha yaxshilik bilan javob qaytarish.

6. Majoziy xarakterdagi qisqa hikoya bo'lib, nasriy yoki she'riy shaklda yozilgan janr nima?

- A) masal;
- B) maqol;
- D) ertak;
- E) latifa.

7. Rivoyatlarning mavzusiga ko'ra turlari qaysi javobda ko'rsatilgan?

- A) xalq rivoyatlari, tarixiy rivoyatlar;
- B) tarixiy rivoyatlar, toponimik rivoyatlar;
- D) toponimik rivoyatlar, xalq rivoyatlari;
- E) tarixiy rivoyatlar, zamonaviy rivoyatlar.

8. «To'maris» hikoyasi qahramonlari to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

- A) Darayavush, O'kuz, Doro;
- B) Doro, Shiroq, Ruztak;
- D) Zarina, Sparangiz, Kayxisrav;
- E) To'maris, Shiroq, Rustak.

2009-YIL - QISHLOQ TARAQQIYOTI  
VA FAROVONLIGI YILI

Yurtboshimiz tomonidan ushbu yilni «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» deb e'lon qilinishi va shu nomdagi Davlat dasturining amaliyotga tatbiq etilayotgani bu boradagi ishlarni yangi bosqichga ko'tardi. Natijada qishloqlarimiz qiyofasi tubdan o'zgarib, obod va ko'rkam go'shalarga aylanmoqda.

Yaqinda poytaxtimizda bo'lib o'tgan qishloq aholisi uchun yakka tartibdagi uy-joylarning loyihalari va qurilish materiallarining ixtisoslashtirilgan ko'rgazmasi esa mamlakatimiz qurilish sohasida muhim voqea bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu loyihalar asosida zamonaviy uy-joylar qurilib, qishloq aholisi uchun shaharnikidan qolishmaydigan qulayliklar yaratiladi.

«Qishlog'im - qalb ardog'im» tanloviga



ONA YURTIMIZDA BUNYODKORLIK ISHLARI AVJIDA

## XO'JAQO'RG'ON SO'LIM EKAN

Yaqinda oyim bilan Samarqand viloyatining Narpay tumanidagi Xo'jaqo'rg'on qishlog'ida bo'lib qaytdik. Qishloq juda ham go'zal va so'lim ekan. Odamlari shirinso'z, mehmondo'st...

Borgan kunimiz bobomning hovlisi qarindoshlar bilan to'lib ketdi.

Ariqdagi suvda bolalari bilan suzib yurgan o'rdakchalarni tomosha qildik. Jo'jalarga, tovuqlarga don berdik. Sigir, buzoq, qo'zichoqlarga o'tlar berdik.

«Simba» laqabli kuchukcha bilan mazza qilib o'ynadik. Tomorqada pishib yotgan bodring, pomidorlarni terdik. Olma terishda Akbarali, Kamoliddin tog'alarimizga yordam berdik.

Qo'shnilarining Diyorbek ismli o'g'ilchasi bilan tanishdim. U bog'chaga borarkan. Bog'chadan keliboq, bizlar bilan o'ynagani chiqadi. Bir kuni tog'am tomorqaga suv qo'yayotganida, ariqdagi suvga yiqilib tushdi. Hamma joyi suv, loy bo'ldi. Uning turishi biram kulgili ediki, hammamiz beixtiyor kulib yubordik. Ammo

u sira xafa bo'lmadi. Aksincha, bizlarga qo'shib rosa kuldi.

Ozoda opamga supani, uylarni supurishda, taomlar tayyorlashda yordam berdim. Chunki Oybuvi yangam, Shohida, Maftuna opachalarim daladagi ishdan charchab keladilar-da.

Shu kuni katta ammamiz - sakson yoshli Nazokat momoni ko'rgani bordik. Momomiz bizni ko'rib, juda xursand bo'ldilar, aylanib-o'rgildilar, qurut, turshak, yong'oq, mayiz, parvarda bilan siyladilar. Uzundan-uzoq duo qildilar.

Xullas, bizlar qishloqda mazza qildik. U yerdan hecham ketgimiz kelmadi. Ammo oyijonimning «ketishimiz kerak», deb qayta-qayta takrorlashlaridan, «Yana olib kelaman», deb va'da berganlaridan so'nggina shaharga qaytishga rozi bo'ldik.

Dilbaroy PRIMOVA,  
Toshkent shahar, Uchtepa tumanidagi  
296-umumta'lim maktabining  
2-«A» sinf o'quvchisi

## YURT QADRI

Qishloq mo'jaz Vatandir. Bu so'z zamirida olam-olam ma'no yotadi. Vatan deganimizda, ko'z oldimizda, eng avvalo, onamiz gavdalanadi. Chunki ona farzandiga bor mehrini bag'ishlaydi.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin barcha sohalarida tubdan o'zgarishlar ro'y berdi. Bunyodkorlik, obodonchilik ishlari yanada avj oldi. Ko'plab maktablar, litsey, kollejlari qurilib, foydalanishga topshirildi. Biz yoshlarning bilim olishimiz uchun barcha sharoitlar yaratildi. Bizning vazifamiz a'lo o'qib, ota-onamiz, ustozlarimiz ishonchini oqlash, Ona yurtimiz qadriga yetish. Bu borada oyijonlarimiz ko'plab ertaklar, rivoyatlar aytib berardilar. Ulardan birini sizlarga ilindim:

Bir qaysar qizcha bor ekan. U sira ota-onasining gapiga kirmas ekan. Bir kuni juda qattiq shamol bo'libdi. Dadasi unga tashqariga chiqma, desa ham chiqibdi. Shunda shamol uni uzoqlarga uchirib ketibdi. Yo'lda bir burgutni ko'rib qolibdi. Shunda burgut unga: «Mening ikkita palaponim bor. Ular uyamni yoyib tashlagan. Agar sen meni inimni tozalab bersang, seni uyingga olib borib qo'yaman», debdi. Qizcha burgutning uyasini tozalab beribdi. Shunda burgutning fikri o'zgarib qolibdi: «Agar qizchani uyiga olib borib qo'ysam, uyamni kim tozalaydi?» - deya qizchaga yuzlanibdi: «Men seni aldagandim, uyingga olib bormayman. Sen

mening uyamni endi har kuni tozalaysan, tozalamasang, cho'qqidan tashlab yuboraman, qochishga urinma», debdi. Qizcha juda xafa bo'libdi va yig'labdi. Burgut har kuni ovga ketar ekan. Qizcha esa uning uyasini tozalab, palaponlariga qarab, yig'lab o'tirar ekan. Qizchaga palaponlarning rahmi kelibdi. Burgut uxlab yotganda, patlaridan olib, qanot yasab qizchaga berishibdi. Qizcha uyiga qochib ketibdi. Endi u ota-onasining aytganlarini qiladigan bo'libdi. Sababi, o'z uyidan afzalroq makon yo'qligini tushunib yetibdi.

Malika BOYBO'SINOVA,  
Jizzax viloyati, Forish  
tumanidagi 33-umumta'lim  
maktabining 7-sinf  
o'quvchisi



## SHE'RIYAT

Quyosh yorqin, nurli bo'lsa,  
Uning nuri she'riyat.  
Agar dunyo chaman bo'lsa,  
Uning guli she'riyat.

Adabiyot uzuk bo'lsa,  
Uning ko'zi she'riyat.  
Inson shirin zaban bo'lsa,  
Uning so'zi she'riyat.

Chaman JONUZOQOVA,  
Respublika musiqa va san'at  
litseyining 8-sinf o'quvchisi

ONA TILIM - BOBO  
TILIM

Ona tilim, boba tilim,  
Momolardan yodgor tilim,  
Sensan buyuk iftixorim,  
Dur-u inju, dunyo tilim.

Dovrug' kezgan tilimsan sen,  
Dilga payvand dilimsan sen,  
Bir shoira qizingman men,  
Sen bulbuligo'yo tilim.

SO'Z - TAFAKKUR  
ZIYOSI

Vaxshi so'z - jon ozig'i,  
Nomon so'z - jon qozig'i,  
Go'zal so'zning borligi,  
Tilimning boyligi.

So'z bu go'zal ifoda,  
Ollindan ham ziyoda,  
U sho'rdagi mantiqda,  
Fizlar bir tartibda.

So'zdir insonning ko'rki,  
Qalbdir uning makoni,  
Tafakkurning ziyosi,  
Sof sadafsning jilosi.

Sharofat NURULLAYEVA,  
Buxoro viloyati, Jondor tumanidagi  
Alisher Navoiy nomli maktab o'quvchisi



# BIR MAKTABDAN YETTI MAKTUB



*Xoh ishonang, xoh ishonmang, sahifamiz nomiga bir kunda bir maktabdan yettita maktub keldi. Qaysi maktabdan, deysizmi? Qashqadaryo viloyati, G'uzor tumanidagi 18-umumta'lim maktabi o'quvchilaridan. Ular katta tanaffusga, bilim maskanlaridagi shart-sharoitlarni, mehridaryo ustozlarini maqtab, maktub yozishga ahd qilishibdi. Keling, yaxshisi, ularni katta tanaffusda o'zingiz o'qib ko'ring.*

**MAKTABIM**


*Salom ona maktabjon, Sensan bilimlarga kon. Quchoq'ingda bolalar, Quvnab yurishar har on. Ikki qavat binong bor, Shinam sinf xonang bor. Shu xonada o'qiyimiz, Darlarda biz hushyor. Puxta bilim olamiz, Senga sodiq qolamiz. Bugun madhingni maqtab, She'r yozdim senga, maktab!*

**Mashhura BOZOROVA**

**RO'ZDARIN NISBETI**

Ikki qavatli, ko'rkam bilim maskanimizda 600 o'quvchi ta'lim-tarbiya oladi. Bizlarga Sh.Sheraliyev, Z.Qurbonov, X.Kenjaye, D.Bobomurodova, M.Nazarova, F.Jabborov, M.Qorayeva, M.Boysunov, R.Qodirov kabi ellikdan ziyod mehridaryo ustoz va murabbiylar saboq berishadi. Maktabimiz bog'i uning ko'rkidir. Turli xildagi mevali va manzarali daraxtlar o'sadigan bu bog'ni o'zimiz parvarish qilamiz. Ko'pchilik havas qiladigan shunday chiroyli bilim dargohida tahsil olayotganimizdan faxrlanamiz.

**Dilorom SUYUNOVA**



Men «Tong yulduzi»ning har bir sonini intiqlik bilan kutaman. Ayniqsa, «Quvnoq tanaffus» sahifasini katta qiziqish bilan o'qiyman. Undagi «Rasmlar ko'rgazmasi»ni tomosha qilib, zavqlanaman. O'zim ham rasmlar chizaman. Bugun ulardan birini tahririyatga yuboryapman.

**Gulhayo TILOVOVA**

**USTOZDEK BO'LSAM...**


Men ham shu maktabda tahsil olaman. Ismi-sharifim sinfnig a'lochi o'quvchilari qatorida tilga olinadi. Yaqinda maktabimiz o'quvchilari fan olimpiadalar va iqtidorli bolalar ko'rik-tanlovida faxrli o'rinni olishdi. Men nemis tili fanidan o'tkazilgan olimpiadada qatnashdim. Faxrli 2-o'rinni qo'lga kiritishimda ustozim Nargiza opa Rahmonovanning hissalarini katta bo'ldi. Kelajakda ulardek nemis tili fani o'qituvchisi bo'lmoqchiman.

**Gulshoda MUSTAFOYEVA**

## ULAR BIZNING FAXRINIZ

Qadrli tahririyat xodimlari, bugun maktabimizning iqtidorli o'quvchilari haqida maqola yozish uchun qo'limga qalam oldim. Chunki bilim maskanimiz faxriga aylangan bu o'quvchilarni har qancha maqtasak oz. Maftuna Doniyorova «Adabiy o'lkashunos» sho'basida qatnashib, faxrli 2-o'rinni, Ma'ruf Tillayev, Xolmo'min Toyloqov «Sanoat va agrosanoat» sho'basida ishtirok etib, faxrli 1-o'rinni, Fazliddin Nurimov «Naqqoshlik» sho'basida 1-o'rinni qo'lga kiritdilar. Shuningdek, 9- va 8-sinf o'quvchilaridan Dilorom Suyunova, Zuhra Xolmirzayeva, Go'zal Fayziyeva, Gulmira Mirzamurodova, Madina Xolmanovalar ham ko'plab ko'rik va tanlovlarda muvaffaqiyatli ishtirok etib, maktabimiz sha'nini ko'klarga ko'tarishdi. Ularni maktabimiz rahbari qizg'in muborakbod etib, Diplom bilan taqdirladilar. Shunday maktabdoshlarim borligidan faxrlanamiz.

**Gulandon CHORIYEVA**



## SIZGA HAVAS QILAMAN

Salom gazeta ijodkorlari! Men barchaga hamisha xush kayfiyat hamroh bo'lishini tilovchi quvnoq muxlisangiz Maftunaman. Bugun sizlarga ona tili va adabiyot fanidan saboq berayotgan mehridaryo ustozimiz Dilrabo Bobomurodova haqida yozgim keldi. Adabiyotga bo'lgan qiziqishim maktabimiz qoshidagi «Yosh qalamkashlar» to'garigiga yetakladi. Unga rahbarlik qilayotgan Dilrabo opa bizni she'riyat atalmish sirli, sinoatli olam sari yetaklayaptilar. Yozgan she'riy mashqlarimizni kamchiliklarini ko'rsatib, yaxshi-yaxshi maslahatlar beradilar. Ustozga bag'ishlab yozgan she'rimni tahririyatga yo'llayapman:

### MEHR TO'LA KO'ZINGIZ

*Qalbingiz beg'ubor, bilaman,  
Men sizga havas qilaman.  
Meh-r-la boqadi ko'zingiz,  
Hikmatga boy so'zingiz.*



Maftuna DONIYOROVA

*Qablarga ezgulik ulashib,  
She'riyat bog'iga boshlaysiz.  
Shogirdlar qo'lidan yetaklab,  
Kelajakka qadam tashlaysiz.*

- Bahoingni ertagayoq tuzatgin, - dedi dadasi Nodirning kundaligidagi «2» bahoni ko'rib.  
- Aka, bahoingiz kasal bo'lib qolibdimi? - so'radi jajji singlisi Shahlo achinish ohangida.



Bibinoza NAMOZOVA tayyorladi

**XANDALAR**

- Sardor, «Ahmad ko'chadan pul topib oldi», degan gapning egasini topgin.  
- Ahmad uch marotaba «Kinniki?» deb so'raydi, egasi topilmasa, o'ziniki-da...

**TAHRIRIYATDAN:**  
Katta tanaffusda tahririyatimizga birgallikda maktub yo'llagan tengdoshlaringizdan behad minnatdormiz. Yana bir ibratli jihati, ular maktublariga qo'shib, «Tong yulduzi»ga obuna varaqachasini ham yuborishibdi.



## Xalq bor ekan, millat bor ekan, uning tili ham hamisha bor bo'ladi



Aziz o'quvchilar, yana ikki kundan so'ng qanday sanani nishonlashimizni hammangiz yaxshi bilasiz-a? Til bayramini, deysizmi, ha, barakalla! 1989-yil 21-oktabrda yurtboshimiz tashabbusi bilan o'zbek tiliga Davlat tili maqomi berildi. Ushbu sanaga bu yil roppa-rosa 20 yil bo'libdi.

Shu munosabat bilan filologiya fanlari nomzodi Jo'ra aka MAMATOVni suhbatga chorladik:

– Yurtimizning har bir fuqarosi qalbini faxr va iftixorga to'ldirgan ushbu sana – o'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganiga ham 20 yil bo'libdi. Tilimizning Davlat tili maqomida ustuvor turishi uchun nimalar qilishimiz kerak?

– O'zbek tiliga Davlat tili maqomining berilishi faqat o'zbeklar uchun emas, balki O'zbekistonda yashaydigan barcha millat vakillari uchun ham ahamiyatlidir. O'zbek tili o'z Vatanda Davlat tili maqomida mustahkam turishi uchun uni jahon xalqlariga tanitish, jahon tillari ichida munosib o'rin egallashiga erishishimiz kerak bo'ladi. Til haqidagi Qonun 24 moddadan iborat bo'lib, uning birinchi moddasida O'zbekistonda Davlat tili – o'zbek tili, deb yozib qo'yilgan.

Ma'lumki, har qanday mustaqil davlatning asosiy to'rt narsasi bo'lishi shart. Bular davlatning ma'lum bir hududi, o'z armiyasi, o'z puli, o'z tilidir. Demak, til davlat miqyosidagi bir gavvardir.

Til kishilarning bir-birlarini tushunishlariga, yashash uchun vositalar topishlariga, birlashishlariga, ishlab chiqarishni tashkil qilishlariga yordam beradi. Uning rivojlanishi jamiyat hayoti bilan bevosita bog'liq. Hayotda ro'y bergan o'zgarishlar tilda aks etadi.

– Xalq so'zi asosidagi qo'shiqlarimiz ham talaygina.

– Tilni (so'zni) xalq yaratadi. Shuning uchun ham til so'zi oldiga xalq nomi qo'shiladi, biror shaxs (odam) ismi emas. Shoir va yozuvchilar shu so'zlardan o'z asarlarida foydalanadilar. Demak, tilning butun kuchi va ahamiyati xalq bilan bog'liq. Til va uning boyligi avloddan-avlodga o'tib, kishilarning ma'naviy dunyosini boyitib boradi. Xalq bor ekan, millat bor ekan, uning tili ham hamisha bor bo'ladi. Sevimli shoirimiz shunday yozadi:

Ming yildir kim, bulbul kalomi  
O'zgarmaydi, yaxlit hamisha.  
Ammo sho'rlik to'tining holi –  
O'zgalarga taqlid hamisha.

Ona tilim, sen borsan shaksiz,  
Bulbul kuyin she'rga solaman.  
Sen yo'qolgan kuning, shubhasiz,  
Men ham to'ti bo'lib qolaman.

– Ko'ngil daryosining gavhari tildir, deya baho berganlar tilimizga ulug' bobokalonimiz Alisher Navoiy.

– Hazrat Navoiy bobomiz yana: «Tilga e'tibor – elga e'tibor», deya e'tirof ham etganlar. Xalq o'z tilining eng oliy hakamidir, til xalq mulkidir. Xalqni o'z millatiga eng ko'p bog'lab

turgan kuch uning tilidir. Bu haqda atoqli ma'rifatparvar shoirimiz Abdulla Avloniy shunday yozadi:

Ey, ona til, aziz qadrdonim,  
Iltifoti ruhim, rahmonim...  
Menga ilm-u adab sen o'rgatding,  
Chin adib, muallim shonim.

Demak, til – millatning qalbi. Xalqning abadiyligi uning tilidadir. Tildagi har bir so'z, uning shakli inson tafakkuri va tuyg'usining natijasidir. Biror so'z dunyoga kelishidan avval inson tafakkurida shu so'zning tushunchasi paydo bo'ladi. Tushunchaning tildagi ifodasi sifatida so'z paydo bo'ladi. O'sha tafakkur va tuyg'ular orqali vujudga kelgan so'z yordamida xalq tabiati va tarixi ifoda etiladi. (Har bir tilning o'ziga xos tomoni va afzalligi, boshqa tillarda muqobil topilmaydigan so'z boyligi uning mag'zidir.)


O'zbek tili turkiy tillar oilasiga kiradi. Agar dunyoda nufuzi jihatdan beshta xalqaro til bo'lsa, o'zbek tili dunyo hamjamiyatida o'z nufuzi bilan 24-o'rinda turadi. Bunga istiqloq tufayli erishildi. Bilamizki, hisob-kitoblarga ko'ra hozir dunyoda 3 mingdan ortiq til bor. Demak, o'zbek tiliga Davlat tili maqomining berilishi, O'zbekistonning mustaqillikka erishishi tilimiz rivojiga ham katta yo'l ochib berdi.

– Har bir inson farzandi borki, dunyoga kelib onasining siymosini ko'radi, u bilan «tillashadi». «Til» so'zi bilan «Ona» so'zining chambarchas bog'liqligi ham shundan bo'lsa kerak.

– Har birimiz bizni v o y a g a yetkazgan, bizga eng bebaho boyligi – tilini hadya etgan onalarimiz oldida q a r z d o r m i z . Tilimizning sofliigi uchun, boyishi uchun jon kuydirsak, farzandlik burchimizni ado etgan bo'lamiz. Ona tilini himoya qilish Vatanni himoya qilish bilan barobardir.

– Jo'ra aka, mazkur suhbatimiz farzandlarimizning murg'ak qalblarida ona ehtiromni oshiradi, tilimizga oid bilimlarini yanada boyitadi, eng muhimi, faxr va iftixor tuyg'ularini kuchaytiradi, degan umiddamiz. Mazmunli suhbatimiz uchun tashakkur!

Feruz JALILOVA suhbatlashdi



## BIRINCHI, BIRINCHI...



Parvona ismli dugonamni hamma o'rtoqlarimdan ko'proq yaxshi ko'raman. Tabiatan ko'ngli yumshoq, ovoziyam mayin qiz. Darslarni-ku suv qilib ichib yuboradi. Saxiyligi, mehribonligini aytmasizmi?


Men fizikadan sal no'noqroqman. Sizga sal deyaqman-u, aslida anchamuncha orqadaman. Tayyorlasam ham negadir miyamga kiravermaydi. Shunda Parvona jonimga oro kiradi. O'zi qanday tushungan bo'lsa, miyamga shunday quyib qo'ygisi keladi. U bilan dars tayyorlagan

kunim mo'ljalidan pastroq baho olsam, kuyunib ketadi. Uni xafa qilmaslik uchun ham kechasi bilan yana o'qib chiqaman. Endi ayting-chi, shu dugonam «Esdalik daftari» tutgan bo'lsa, men ham yuragimdagi so'zlarni yozishim kerakmi yo yo'qmi? Menimcha, juda kerak.

Uyga bordim-u, apiltapil ovqatlanib, darsxonamga kirib ketdim. Buvim hayronlar:

– Ha, darsing ko'pmi?..

– Ha, – dedim-u, chindan ham darsi ko'p odamday xonamga oshiqdim. Albomdagi dil so'zlarini hash-pash deguncha o'qib chiqdim. Shunda Parvona haqiqatan ham yaxshi qiz bo'lgani uchun hamma unga havas



(Hikoya)


qilishini bilib oldim.

Men ham shunday so'zlar yozayki, bunday maqto'v so'zlarini hech kim yozmagan bo'lsin. Albomga hamma o'z rasmini yopishtiribdi. Meniki eng chiroylisi bo'lsin. Shunday deb o'yladim-u, rasmimni qidirishga tushdim. Ana qidiraman, yo'q, mana qidiraman, yo'q. Shundagina uyimizdagi rasmlar har yer-har yerda to'da-to'da bo'lib yotganini bildim. Uni to'plab, albom qilib qo'yish xayolimga kelmaganiga achindim. Oxiri topdim-u, xotirjam bo'ldim. Ularni ehtiyotkorlik bilan yopishtirib qo'ydim. Endi dugonamga arzigulik gap topishim kerak. Qizlar shoirlarning she'rlaridan rosa ko'chirib yozishibdi. Lekin men unday qilolmayman. Parvonani nimaga qiyoslasam ekan?! Qizlarning biri uni bahorga, yulduzga o'xshatishibdi. Men gulga o'xshata qolaymi? Gulgamish, uni g'unchaga o'xshatib ham ulgurishibdi-

ku. Ur-re, topdim: «Sen ismi-jismingga mos do'stlaringga parvonasan», deyman. Bu fikrimdan suyunib ketdim. Allamahalgacha rangli bo'yoqlarda o'zimga ajratilgan sahifalarni bezab chiqdim... Rosa berilib ketganimdan soatga ham qaramabman. Qarasam...

Ertalab shosha-pisha dars jadvalini to'g'rilab, maktabga yugurdim. Parvona «Esdalik daftari»dagi yozuv va rasmlarni ko'rib shunday xursand bo'ladiki... Hoynahoy daftarni bezashda birinchi o'rinni olsam kerak. Uni Parvonaning qo'lga topshirib ulgurmagan ham edimki, qo'ng'iroq chalinib qoldi. Zum o'tmay, matematika o'qituvchimiz kirib keldilar. Yonlarida yoshi anchaga borib qolgan ayol. Qo'lida daftar-qalami bor. O'qituvchi bo'lsa kerak. Orqa partaga borib o'tirdi. Shundagina men albomga yozishda birinchi o'rinni olishni o'ylaganim-u, ammo birinchi soatda bo'ladigan darsning birinchi varag'ini ham ochmaganimni bildim. Birinchi bo'lib meni doskaga chiqarsalara? Endi nima bo'ladi?

Yayra SA'DULLAYEVA



## TENNISCHIMI, FUTBOLCHI YOKI KARATECHI?

**Dono VALIXONOVA** Hamza tumanidagi 226-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi. Shahrimizdagi «Azamat Karim» karate klubi va Yunusobod tennis sport saroyidagi mashg'ulotlarda muntazam qatnashadi. Ikki karra O'zbekiston chempioni, bir necha musobaqalar g'olibi. Uning ukasi Valixon VALIXONOV «Paxtakor» bolalar futbol jamoasi tarbiyalanuvchisi, shahar chempionati g'olibi hamda «Azamat Karim» karate klubi a'zosi.

Bu opa-uka sportchilar kamol topayotgan oilada hamma sport bilan muntazam shug'ullanadi. 5 yoshli erkatoy Ominaxon bilan onasining zimmasiga ham muhim vazifa yuklatilgan. Axir har kuni mashg'ulotlardan qaytgan bolajonlariga shirin taomlar tayyorlash, ust-boshlarini tozalab yuvishdan ham muhimroq ish bo'lishi mumkinmi?!

Bugun yana Dono, Valixon, oyisi, dadasi, jajji Omina musobaqalarga o'tlanishyapti. Men bu oila a'zolarini metro bekatida uchratib qoldim. «Yana musobaqagami?» – so'rayman ulardan.



– Ha, – deydi jilmayib Xolidaxon opa. Ertalab Valixon jamoasi bilan shahar chempionatida qatnashadi. Peshinda

Dono qizimiz t e n n i s musobaqasida ishtirok etadi. Biz esa ularni qo'l-lab-quvvatlab turamiz.

– Tennisga qatnashyapti, dedingizmi? – d e y m a n hayratim oshib. – Axir Dono y a q i n d a karatening

shotakan-do turi bo'yicha Yaponiyaga — jahon chempionatiga bormoqchi, degandingiz-ku?!

– Ha, hozir ham Xo'jamqul aka Xo'jamqulovning mashg'ulotlariga qatnashyapti. Bir kun karatega, bir kun futbolga qatnaydi. Mana besh oydirki, tennis mashg'ulotlarida ham ishtirok etyapti.

– Charchab qolmayaptimi, maktabdagi darslari-chi? – so'rayman hayratim oshib.

– Men ham gohida achinib ketaman. Lekin o'zlari shuni xohlashsa, nimayam derdik. Faqat yaxshi niyat qilib, yetaklab yurish vazifamizdir. Tinimsiz mehnatlari, vaqti kelib, ularni chempionlik shohsupasi sari yetaklasa, ne ajab?!

# SPORT SPORT

## POLVONLARI KO'P MASKAN

Shahrisabz kurash maktabi ana shunday dargohdir. Bu yerda ayni paytda 554 nafar bo'lajak polvonlar mashg'ulotlarga chiniqishyapti.

– Kurash maktabimiz, – deydi direktor Abdulkarim Aminov, – bu yil sakkiz yoshga to'ldi. Ayni paytda maskanimizda ko'plab musobaqalar tashkillashtirilyapti.

Yaqinda Tailandning Bangkok shahrida bo'lib o'tgan jangovar yakkakurash bo'yicha birinchi Osiyo o'yinlarida o'zbek kurashchilari umumjamo'a hisobida birinchi o'rinni egallashgandi. Polvonlarimizdan Abduqodir Pirmatov va Nodirxon Muzaffarov dovrug' qozongan kurashchilardan. Maktabimiz

o'zbek kurashiga ko'plab chempionlarni tarbiyalab berdi. Milliy kurash bo'yicha jahon birinchiligi g'olib va sovrindorlari Otabek Maqsudov, Davron Sattorov, Shohida Nazarova, mohir kurash ustalari Shuhrat Nazarov, Ozod Kamolov maktabimiz faxri hisoblanishadi.

Xolbobo Avloqulov, Farhod Xo'janov, Ilhom Murodovdek tajribali murabbiylarimiz yosh polvonlarni izlab topishdan erinmaydilar. Quvonchlisi, bugungi kunda o'quvchilarimiz turli Olimpiya zaxiralari kollejlari tahsilni davom ettirmoqdalar.



Quyichirchiq tumanidagi 4-maktabgacha ta'lim muassasasi bolajonlarning sevimli dargohiga aylangan. Chunki bu maskanda sport to'garaklari muntazam ishlab turibdi. Bu yerda tarbiyalanayotgan epchil, chaqqon jajji chempionlar tuman miqyosida o'tkazilgan bolalar sport bayramida birinchilikni qo'lga kiritdilar.  
Husanboy AVVALOV olgan surat

## QIZIQARLI O'YIN

Bu o'yinda ishtirok etayotgan bolalar qo'llarini bir-birlarining yelkalariga qo'yib, bir tekisda saflanadilar. Safning oxirigisi «dumi» hisoblanadi.

«Bosh» «dum» tomonga intilib, uni ushlab olishga harakat qiladi. «Dum» esa undan qochadi. «Dum» qo'lga tushib qolsa, vaqtincha o'yindan chiqadi. O'yin davomida barcha bolalar goh bosh, goh dum bo'lib qatnashadilar.

Siz maktabingizda yoki mahallangizda qanday yangi o'yinlar o'rgandingiz? O'rganganlaringizni bizga ham o'rgatarsiz?

Xatlaringizni kutamiz

Bo'sh o'tirmay, bosh qotir!



# HAQIQIY BAYRAM BO'LDI

Kuzatib boryotgan bo'lsangiz, yurtimiz bolalari deyarli barcha sohalarda o'z iqtidorlarini namoyish etib, dunyoni lol qoldirmoqdalar. Poytaxtimizning S.Rahimov tumanida joylashgan 2-«Muruvvat uyi»dan tayyorlangan lavhamiz ham o'z iqtidorini namoyish etayotgan bolalar haqida. U yerda kami kecha VI Parolimpiya o'yinlarining final bosqichi bo'lib o'tdi. Bu sport musobaqasida respublikamizning Andijon, Buxoro, Farg'ona, Qashqadaryo viloyatlaridan hamda Toshkent shahridagi 1-2-«Muruvvat uyi»laridan kelgan 85 nafar imkoniyati cheklangan bolalar qatnashishdi.

Parolimpiya o'yinlarining ochilish marosimida mazkur musobaqa ishtirokchilari tomonidan tayyorlangan bayram dasturlari namoyish etildi.

## MINI BASKETBOL

2-«Muruvvat uyi»ning basketbolchilari Ilhom Habibullayev, Umida To'raqulovlar o'yin paytida yuksak mahorat ko'rsatib, jamoalarini g'olib bo'lishiga munosib hissa qo'shdilar. Musobaqaning to'p bilan yugurish, to'siqlardan o'tib, to'pni basketbol to'riga uloqtirish, futbol to'pini bir-biriga uzatish, yugurish kabi turlarida epchillik bilan bellashgan ishtirokchilar mehmonlar-u mezbonlarni hayratga solishdi.

## BO'SH KELMANG, AZAMATLAR!

Ba'zida o'ylab qolasan kishi: sog'lom, egni but, baquvvat ayrim bolajonlar o'qishga ishtiyiqi sust, sportga befarq bo'ladilar. Biz tashrif buyurgan «Muruvvat uyi»dagi bolajonlar hayotni sevishadi,

uning qadriga yetishadi. Ilm-fan, sport va san'at sohasida sog'lom tengdoshlaridan qolishmaslikka intilishadi. Biz ham ularga, bo'sh kelmang, azamatlar, deymiz. **Manzura UBAYDULLAYEVA**

## RIVALDO HAM QATNASHDI

Ha, ishonavering, musobaqada o'sha mashhur futbol yulduzi Rivaldo ham qatnashdi. U «Bunyodkor» jamoasidagi o'yinchilar bilan birga o'ynadi. Bundan ruhlangan «Muruvvat uyi» tarbiyalanuvchisi Dilshod Jo'rabekov urgan gol tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'ldi. Bu o'yinda omad andijonlik bolalarga kulib boqdi. Lekin gap g'oliblikda emas. O'zaro tajriba almashib, do'stlashib, mahoratini oshirgan musobaqaning barcha ishtirokchilari g'alaba nashidasini totgandek mamnun edilar. Mahoratingizga tasanno, aziz sportsevar bolajonlar!

**Aziz muxlis! Diqqatingizga uchta mashq havola etildi. Ularni hal etib, o'zbek tilimiz haqidagi bilimingizni sinab ko'ring.**


**AYLANMA KROSSVORD**  
Shaklda belgilangan xonalardan raqamlar atrofiga soat mili yo'nalishida: 1. Predmet belgisini bildiruvchi so'zlar turkumi. 2. Tinish

belgi. 3. Mukammal lug'at nashri. 4. His-hayajon, buyruq-xitob ma'nolarni bildiruvchi so'z turkumi. 5. Ot, sifat, son kabi so'zlar o'rnida qo'llaniluvchi predmet belgi, miqdorga ishora qiluvchi so'zlar turkumi. 6. So'zko'rki. 7. Biror noma'lum narsa-hodisani aniqlashni ifodalovchi gap. 8. Xabar mazmunini ifodalagan gap. 9. Talaffuzda turli to'siqqa uchrab, shovqin bilan hosil

bo'lagidan tovush, harf turi. 10. Kelishiklardan biri. 11. Fan, texnika, kasb-hunarning biror sohasiga xos muayyan bir tushunchaning aniq va barqaror ifodasi bo'lgan so'z. 12. Yozuvda matn bo'laklarining ma'no tugallanishini hamda matnning sintaktik va ifodali ajralishini ifodalovchi belgilar majmui. 13. Ish harakatining belgisini, paytni, o'mini, daraja va miqdorini bildiruvchi so'z turkumi. 14. Tilning bir necha sheva va dialektlarini o'z ichiga olgan, umumiy xususiyatlari jihatidan mahalliy guruhi. 15. Kishilar o'rtnasidagi muomala, munosabat. 16. Tuzilishi jihatidan yaxlit, ayrim gaplarga bo'linmaydigan gap. 17. O'zbek tiliga berilgan mavqe, daraja. 18. Gapning bosh bo'laklaridan biri.

gapning ikkinchi darajali bo'lagi. 16. Tilga oid bilim sinab ko'riladigan yozma ish. 17. Shakl va talaffuzi bir, ammo ma'nosi boshqa-boshqa, shakldosh so'zlar. 18. Matndagi xatolarni tuzatuvchi. 19. Ish harakatining qay tarzda bajarilishi belgilarini bildiruvchi gapning ikkinchi darajali bo'lagi. 20. So'z yoki gapni bir necha ma'noda ishlatishga asoslangan so'z o'yini. 21. Predmetning ish harakatini yoki holatini bildiradigan hamda shaxs, zamon va sonda tuslanadigan so'z turkumi.

## «O'ZBEK TILI» topqirlik mashqlari



**CHAYNVORD**  
Aylana yo'nalishi xonalari bo'yicha: 1. Tilshunoslikda so'zning tovush tarkibini o'rganuvchi bo'limi. 2. Gapda sifatini, belgi xususiyatni anglatuvchi ikkinchi darajali bo'lak. 3. Matnning ayrim yeriga kiritilgan qo'shimcha ma'lumot. 4. Chiroyli, ko'rkam yozilgan matn. 5. So'zlashuv, yozuv qoidalarini o'rganuvchi fan. 6. O'rta asr tilshunos olimi, «Devon-u lug'otit turk» asari muallifi. 7. Biror narsani ta'riflash tarzi. 8. So'zlashuv jarayonidagi til. 9. Ikki tik yoydan iborat tinish belgi. 10. Grammatikaning o'zaro bog'lanishli nutq qurilishini o'rganuvchi bo'limi. 11. Hisoblash va undan olingan natijani ifodalovchi so'z. 12. Tinish belgi. 13. Predmetning miqdorini bildiruvchi so'zlar turkumi. 14. Ish-harakat bilan bajaruvchi shaxs orasidagi munosabatni anglatuvchi fe'l shakli. 15. O'z hokim so'ziga odatda boshqaruv yo'li bilan bog'lanuvchi,

**HIKMATLAR MUAMMONOMASI**  
Avvalo quyida ta'riflanib, raqamlarda ifodalangan kalit so'zlarni toping:  
1. Gapning kim yoki nima haqida aytilganligini bildiruvchi so'z, bosh bo'laklardan biri—5,9,4.  
2. Biror tushuncha ifodalovchi so'zlar birikmasi, ta'bir—2,8,6,7,4.  
3. Nazmiy asar—12,5,10,7.  
4. Tilimiz matnida qo'llanilayotgan yozuv—3,6,1,2,14.  
5. Gaplarda eng ko'p qo'llaniladigan bog'lovchi—11,4.  
6. Vaqt birligi—15,2,3.  
7. Tilshunoslikning so'z shakllari, so'z birikmalari va gap turlari haqidagi bo'limi—9,7,4,16,16,4,1,2,17,4.  
8. Kishilik olmoshi—20.  
9. Biror ma'no bildiruvchi nutq birligi, gap bo'lagi—21,18,19.  
10. Teng qiymatli ikki gap bo'lagini bir-biriga bog'lovchi—13,14,16.  
Kalit so'zlar javoblari asosida shakl markazidagi va atrofidagi raqamlarni harflar bilan almashtirib, muammonomani hal eting. Bunda ulardan shakl markazida ibratli so'z, atrofidagi raqamlardan esa hikmatli so'z, uning muallifi bo'lgan mumtoz mutafakkir shoir nomini bilib olasiz.

Foziljon ORIPOV tuzdi

### Gazetaning 40-sonida e'lon qilingan «Topshiriqli aylanma skanvord»ning javoblari:

Shaklda belgilangan xonadan soat mili yo'nalishida: 1. Avgust. 2. Samarqand. 3. «Kamolot». 4. Malikov. 5. Bobojon. 6. Bolaligim. 7. Maqola. 8. Iqtisod. 9. «Xandobus». 10. Nilufar. 11. Maktub. 12. Suratlash. 13. Ustozdan. 14. Razzoqov. 15. Topishmoq. 16. Shamsharov. 17. Olamda. 18. Onajonim. 19. Murabbiy. 20. Adiblar.  
Topshiriq: Qadrlil nashrimiz ijodkor va muxlislarini shonli sana bilan qutlaymiz!



**BOSH MUHARRIR: To'lqin HAYITOV**

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

**TAHRIR HAY'ATI:**  
G'ayrat SHOUMAROV, Svetlana INOMOVA, Qahramon QURANBOYEV, Odina JAMOLDINOVA, Jabbor RAZZOQOV, Murtazo SULTONOV, Feruza JALILOVA (Bosh muharrir o'rinbosari), Feruza ADILOVA (Mas'ul kotib), Dilmurod RAHMATILAYEV, Dilshoda DADAJONOVA

**Manzillimiz:**  
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 700129. Obuna indeksi: 198. e-mail: tong1924@mail.ru  
**Tel:** 244-27-25, 244-63-08  
**Tel./faks:** (99871) 244-38-10

**«O'zbekiston»**  
nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi. Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3, 2 bosma taboq. ISSN 2010-6092  
Adadi - 27471  
Buyurtma N: J 8266

### Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

Dizaynerlar: **Fazliddin SHOYODGOROV, Olovuddin ORIPOV**  
Navbatchilar: **Gulyuz ORIFJONOVA, Yusuf ABDULLAYEV**